

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 348 sahifa.

E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	122
Investment Management is an Important Factor of Economic Development..... Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	127
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari..... Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	130
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish..... Toyrova Yunus Alomovich	136
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi..... Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	143
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash..... Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	148
Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	152
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi..... Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	157
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mehanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari..... Razzoqov Bexzod Gofurovich	191
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment..... Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	196
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida..... Umarov Davron Shavkatovich	218
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari..... Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	227



Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Sirojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lif muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari.....	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Analiz зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	
Davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish.....	263
Abdurahmanov Otabek Patidinovich	
"To'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'lidagi muammolar va yechimlar"	270
Otaxanova Umida Olim qizi	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM XIZMATLARI XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurahmanov Otabek Patidinovich

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent davlat axbot texnologiyalari universiteti

Reja-moliya bo'limi birinchi toifali iqtisodchi, mustaqil izlanuvchi



Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlariga ta'sir etuvchi omillar, xarajatlarni boshqarishning asosiy funksiyalari haqida fikr yuritilda. Shuningdek, davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlarini boshqarish va ularni hisobga olishning yangi samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati tahlil qilingan. Uning hisobiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini tashkil etilishi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: buxgalteriya hisobi, davlat ta'lif muassasasi, kalkulyatsiya, xarajat, xarajatlar hisobi.

Abstract: In this article, the author discusses the factors affecting the cost of educational services in public higher education institutions, the main functions of cost management. Also, the need to develop new effective mechanisms for managing and accounting for the costs of educational services in state higher education institutions was analyzed. Factors influencing its calculation were analyzed and organization of the cost accounting of educational services was studied.

Key words: accounting public educational institution, calculus, cost, cost accounting.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает факторы, влияющие на стоимость образовательных услуг в государственных высших учебных заведениях, основные функции управления затратами. Также проанализирована необходимость разработки новых эффективных механизмов управления и учета затрат на образовательные услуги в государственных высших учебных заведениях. Проанализированы факторы, влияющие на его расчет, и изучена организация учета затрат на образовательные услуги.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, государственное образовательное учреждение, калькуляция, себестоимость, учет затрат.

KIRISH

Dunyo mamlakatlarining globallashuvi nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy sohada, balki ta'lif, ilm-fanning tarmog'i ko'lamini kengayishiga sohaning mukammal rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida ilm-fan va ta'lifni yuqori darajada rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-tehnologik rivojlanishning muhim omili va harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan.

Bugungi kunda oliy ta'lif tizimi rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, davlat oliy ta'lif tizimni iqtisodiy jixatdan boshqarishning xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan usullaridan foydalanish, ta'lif xizmatlari bozorining kon'yunkturasi o'zgarishi hamda oliy ta'lif muassasalarining malakali yuqori ilmiy salohiyatga ega kadrlar ta'minotini talab etmoqda.


Mamlakatimiz davlat oliy ta'lif muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lif muassasalarini shakllantirish, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshliligini ta'minlash asnosida o'z daromad va xarajatlarining hisobini mustaqil yuritish uchun imkoniyat yaratdi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Ostonokulov, A.Kuliboyev, S.Mehmonov, Sh.Pardayeva G.Axunovalarning budjet tashkilotlarida budjet va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha buxgalteriya hisobi, daromad va xarajatlar hisobiga oid ilmiy tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlari mavjud. Xususan, A.Ostonokulovning ilmiy izlanishlarida budjet tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda budjet tashkilotlari faoliyati budjet va budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilib, budjet tashkilotlari budjet mablag'lari sarflanishining eng quyi nuktasi hisoblanadi hamda ularda amalga oshirilayotgan xarajatlarning to'g'ri tashkil kilinishi, maqsadli va manzillilagini ta'minlash bevosita budjet tizimining pirovard maqsadi ekanligi tadqiq etilgan.[7] Shuningdek, budjet tashkilotlarida xarajatlarning iktisodiy jihatdan quyidagicha tasniflangan(1-rasm):

Budjet tashkilotlarida xarajatlarning iktisodiy jixatdan tasniflanishi



1-rasm. Budjet tashkilotlarida xarajatlarning iktisodiy tasnif asosida guruhanishi¹

Sh.A.Pardayeva tadqiqotlarida an'anaviy tarzda shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi muammolari aniqlangan hamda korxonalarda xarajatlarni boshqarish va ularni hisobga olishning yangi va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati asoslangan. Shu xulosa asosida ayni paytda jahon amaliyotida xarajatlar, daromad va moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishning uchta ustuvor yo'naliislari qo'llanilib kelinayotganligi ko'rsatib berilgan.[8]

G.Axunovaning asari O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari tadqiq qilingan bo'lib, unda ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish xususiyatlari, ta'lim xizmatlari tushunchasining mohiyati va mazmuni, ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozorining shakllanish xususiyatlari, ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, oliy ta'lim muassasalarining marketing strategiyasini ishlab chiqish, mamlakatimizda ta'lim xizmatlari va mutaxassislar mehnat bozorida menejment va marketing masalalari yoritib berilgan.[9]

Xorijlik iqtisodchi olimlardan O.D.Kaverina xarajatlarni boshqarishni asosiy funksiyalari quyidagi lardan iborat deb ta'kidlaydi:[10] rejalashtirish va xarajatlarni prognozlashtirish, xarajatlarni boshqarishni tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish, rag'batlantirish va faollashtirish, hisob, tahlil, monitoring va nazorat.

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Zaxarovaning tadqiqot ishida ta'lim xizmatlari bozorining rivojlanish xususiyatlari, ta'lim xizmatlari va mutaxassislar mehnat bozorining o'zaro bog'liqligi, ta'lim xizmatlari tushunchasining mohiyati, mazmuni va tasnifi, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllanishi, ta'lim xizmatlariga talab va taklifning shakllanishi, oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarini ishga joylashtirish, ta'lim xizmatlari bozorining strategik rivojlanishi va marketing tadqiqotlari masalalari o'rganilgan.[11]

Shuningdek, V.S.Bajenovaning asarida ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi, ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ta'lim xizmatlariga talab va taklif muvofiqligi, bitiruvchilarini ishga joylashtirishni tartibga solish, iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida uzlusiz ta'limni amalga oshirish siyosatining asosiy yo'naliislari, bitiruvchilarini ishga joylashtirishni tartibga solish mexanizmlari, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni diversifikatsiyalash jarayoni, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq tadqiqotlar olib borilgan.[12]

Yuqorida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida budjet tashkilotlarida, xususan oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi, budjet va budgetdan tashqari mablag'lar, daromad va xarajatlar hisobi va uning nazoratini tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari tadqiq qilingan bo'lsa-da, davlat ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobi va nazoratini takomillashtirish masalalari batafsil o'rganilmagan. Shu boisdan, ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

¹ Муаллиф томонидан шакллантирилган.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha xorijiy tildagi darslik, ilmiy maqlolalar atroflicha tahlil qilib chiqildi. Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv, guruhlash va ilmiy tadqiqotga oid boshqa usullar qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida ro'y berayotgan ijobjiy o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jamiyatni qayta qurish va kelgusida barqaror rivojlantirish imkonini beruvchi oliy ta'lif tizimini yaratishga zarurat tug'dirmoqda. Davlat oliy ta'lif muassasasi harajatlarni amalga oshirish orqali ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisoblash tizimini takomillashtirish, hisoblash natijalarining ishonchliligini oshirish, hisoblash jarayonini samaraliroq qilish va ta'lif muassasalarining moliyaviy faoliyatini shaffof va barqarorligini ta'minlashda ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobini yuritilishi muxim ahamiyatga ega.

"Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi" Nizomga [4] muvofiq davlat oliy ta'lif muassasasi mablag'lari quydagi larda sarflash uchun taqsimlanishi mumkin:

oliy ta'lif muassasalarining ishlab chiqarishdan ajralgan holda kontrakt asosida ta'lif olayotgan talabalariga (xorijiy talabalardan tashqari) stipendiyalar to'lashga;

oliy ta'lif muassasalari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, shuningdek, yagona ijtimoiy to'lovlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

oliy ta'lif muassasalarida bino va inshootlarni saqlash hamda kommunal xizmatlar bo'yicha xarajatlarni to'lashga;

mavjud kreditor qarzlarni uzishga;

o'quv-laboratoriya binolari, talabalar turar joylari hamda boshqa bino va inshootlarni, asbob-uskunalarni joriy va kapital ta'mirlashga, oliy ta'lif muassasasining hududini va atrofini obodonlashtirishga, shuningdek qurilish-tiklash ishlari;

o'quv, ilmiy-tadqiqot va laboratoriya jihozlari, yumshoq va qattiq inventarlar, mebellar, o'qitishning texnik vositalari, kompyuter texnikasi va ularning ehtiyyot hamda butlovchi qismlarini, kerakli materiallarni va boshqalarni sotib olish hamda ta'mirlashga;

oliy ta'lif muassasasi Axborot-resurs markazi (kutubxona) fondini to'ldirishga;

"Ma'naviyat va ma'rifat" tadbirlari, "Universiada" va "Barkamol avlod" sport tadbirlari, "Nihol" ijodiy festivalarini o'tkazishga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha xorijiy oliy o'quv yurtlarida istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarni malakasini oshirish va stajirovka o'tashlariga;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati qarorlari asosida vazirlik

va idoralarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan tashqari jamg'armalariga ajratmalarni amalga oshirishga;

oliy ta'lif muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga (ustama, mukofot) va ularga moddiy yordam ko'rsatishga;

oliy ta'lif muassasalari talabalarini ijtimoiy muhofaza qilish doirasida bir yilda bir talabaga eng kam ish haqining olti barobaridan ortiq bo'lgan miqdorda bir yo'la moddiy yordam ko'rsatishga;

oliy ta'lif muassasasi faoliyatini amalga oshirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa xarajatlarni qoplashga. Shuningdek, xarajatlarni amalga oshirishda mablag'lar birinchi navbatda stipendiya, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda energiya resurslari va communal xizmatlarning haqini to'lash maqsadlariga yo'naltiriladi.

Davlat oliy ta'lif muassasasining barcha xarajatlari "Budget tashkilotlari va budget mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizomga muvofiq quydagi guruhlarga ajratilgan:[5]

I guruh xarajatlari – ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar

II guruh xarajatlari – ish beruvchining ajratmalari

III guruh xarajatlari – kapital quylmalar va kapital ta'mirlash

IV guruh xarajatlari – boshqa xarajatlar

Ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisoblash usullari bir necha xil bo'lishi mumkin va ular qo'llanilayotgan ta'lif tizimi, maqsad va ma'lumotlar bazasiga bog'liq. Ammo, umumiy holda, ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisoblashda quydagi usullardan foydalanish mumkin (1-jadval):



1-jadval. Davlat oliy ta'lif xizmatlarini xizmatlari xarajatlari hisobini ritishning usullari²

Ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisoblash usullari	Izoh
To'g'ridan to'g'ri hisoblash usuli	Bu usulda har bir ta'lif xizmatiga to'g'ridan to'g'ri keladigan xarajatlar hisoblanadi. Masalan, bir talabani bir yilda o'qitish uchun ketadigan xarajatlarni hisoblashda, o'qituvchining ish haqi, o'quv materiallari, laboratoriya ishlari, kommunal xizmatlar va boshqa to'g'ridan to'g'ri xarajatlar qo'shiladi.
Hisoblashning oddiy usuli	Bu usulda ta'lif xizmatlarining umumiyligi xarajatlari ta'lif muassasasining umumiyligi xarajatlariga nisbatan hisoblanadi. Masalan, ta'lif muassasasining umumiyligi xarajatlari 100 million so'm bo'lsa, va unda 1000 talaba o'qisa, har bir talabaga o'rtacha 100 000 so'm xarajat ketadi.
Funksional hisoblash usuli	Bu usulda ta'lif xizmatlari xarajatlarini funksional jihatdan tasniflash asosida hisoblanadi. Masalan, ta'lif xizmatlari xarajatlarini o'qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari, ma'muriy xizmatlar va boshqa funksiyalar bo'yicha ajratish mumkin.
Xizmatlarning narxini hisoblash usuli	Bu usulda ta'lif xizmatlarining narxini hisoblashda talabalarning o'qishga bo'lgan talabi, ta'lif muassasasining reputatsiyasi, ta'lif sifati va boshqa omillar hisobga olinadi.
Xarajatlarni tahlil qilish usuli	Bu usulda ta'lif xizmatlari xarajatlarini tahlil qilish orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va ta'lif sifatini yaxshilash yo'llarini topish mumkin. Shuningdek, Zamonaviy dasturiy ta'minotlar ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisoblash jarayonini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni osonlashtirish, hisoblash natijalarini vizuallaştirish imkonini beradi.

Davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlarini hisobini yuritishda quyidagi omillarni hisobga olish muhim:

- Ta'lif muassasasining turi davlat yoki xususiy ta'lif muassasasi, oliy ta'lif muassasasi yoki o'rta ta'lif.
- Ta'lif yo'nalishi iqtisod, texnik, gumanitar, tibbiyot va boshqa yo'nalishlar.
- Ta'lif darajasi bakalavriat, magistratura, doktorantura.
- Talabalar soni talabalar soni ko'p bo'lgan ta'lif muassasalarida xarajatlar kamroq bo'ladi.
- Ta'lif sifati yuqori sifatli ta'lif xizmatlari ko'proq xarajat talab qiladi.
- Ta'lif muassasasining joylashuvi:
- Katta shaharlarda joylashgan ta'lif muassasalarida xarajatlar ko'proq bo'ladi.

“Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli va undan tushgan mablag'larni taqsimlash tartibi to'g'risidagi” Nizomga muvofiq bir talabani o'qitish bilan bog'liq xarajatlar miqdori qabul kvotasi va bino-inshootlar quvvati o'rtasidagi mutanosiblik;

ta'lif yo'nalishlari va ta'lif jarayoni xususiyatlari; bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlari;

o'qitish muddatlarini va boshqalar mezonlarni inobatga olgan holda belgilanadi.

Bizning fikrimizcha, davlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif xizmatlari xarajatlari hisobining yuritishda yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida ta'lif olayotgan talabalarni o'qitish qiymati, to'lov-kontrakt asosida o'qitishning to'lov miqdori va xorijiy fuqarolarni davlat oliy ta'lif muassasalarida to'lov-kontrakt asosida o'qitishning to'lov miqdoriga, shuningdek, to'lov-kontrakt asosida Oliy ta'lifidan keyingi ta'lif izlanuvchilarini o'qitishning to'lov miqdoriga alohida e'tibor qaratish, bunda bir talabani o'qitish bilan bog'liq xarajatlar miqdori aniqlash ta'lif xizmatlari xarajatlar hisobni aniq yuritish imkoniyatini beradi.

“Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lif muassasalarini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi to'g'risida” Nizomga [6] muvofiq moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lif muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida ta'lif olayotgan talabalarni o'qitish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti hisobidan ajratiladigan mablag'larni bakalavriat ta'lif yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi), turi, bosqichi va shaklidan kelib chiqib, har bir davlat granti asosidagi o'rinn uchun sarflanadigan xarajatlar normativini hisoblash metodologiyasini, ajratilgan mablag'larni moliyalashtirish hamda sarflash tartibini ishlab chiqilgan(2-jadval).

² Муалиф томонидан тузилган.



2-jadval. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sohalari bloklari bo'yicha professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash xarajatlarini o'z ichiga oluvchi bir nafar talabani o'qitish uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativlarini aniqlash jadvali³

t/r	Ta'lim sohalari va yo'nalishlari (mutaxassisliklari) nomi	Bakalavriat (magistratura, klinik ordinatura)				
		Bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati	Professor-o'qituvchi larning o'rtacha oylik ish haqi**	Professor-o'qituvchilar yillik ish haqi fondi ajratmasi bilan	Professor-o'qituvchilar yillik soatbay fondi ajratmasi bilan (4%)	Moddiy rag'battan-trish jamg'armasi ajratmasi bilan
1		2	3	4 = (3-ust. x 12 oy x 1,12) / 2- ust.	5 = 4- ust. x 0,04	6 = 4- ust. x 0,15
Iqtisodiyot	16	8 226 102	6 909 926	276 397	1 036 489	8 222 812

Jadval ma'lumotlaridan bilish mumkinki, iqtisodiyot yo'nalishidagi bakalavratura bosqichida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabasining professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash xarajatlarini 8 222.8 ming so'mni (YAITsiz) tashkil etmoqda. Bunda, professor-o'qituvchilarning o'rtacha ish haqi (ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan katta o'qituvchi) o'rtacha oylik qilib olingan(3-jadval).

3-jadval. Davlat oliy ta'lim muassasasiga 2023-2024 o'quv yilida iqtisodiyot sohasi bakalavratura bosqichiga qabul qilingan bir nafar talabaning o'qitish qiymati⁴

No	Xarajat nomi	O'Ichov birligi	O'qitish qiymati
I. Bir nafar talabani o'qitish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq xarajatlarining bazaviy normativlari			
1.1	Bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati	Nafar	16
1.2	Professor-o'qituvchilarning o'rtacha ish haqi (ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan katta o'qituvchi, bir oylik okladi)	So'mda	8 226 102
1.3	Bir nafar talabani o'qitish uchun bir o'quv yili davomida Professor-o'qituvchilarga to'lanadigan o'rtacha yillik ish haqi	So'mda	6 909 926
1.4	Professor-o'qituvchilar yillik soatbay fondi 4%	So'mda	276 397
1.5	Moddiy rag'battantirish jamg'armasi 15%	So'mda	1 036 489
1.6	Yagona ijtimoiy to'lov 12%	So'mda	987 132
Bir nafar talabaning o'qitish uchun professor-o'qituvchilarga to'lanadigan bazaviy normativ (Ish haqi va YAIT 12%)		So'mda	9 209 944
II. Bir nafar talabani o'qitish uchun boshqaruv-tashkiliy xarajatlar qiymati			
2.1	Bir nafar talabani o'qitish uchun bir o'quv yilida sarflanadigan boshqaruv, texnik, xizmat ko'ssatuvchi va o'quv yordamchi xodimlarga ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar va YAIT 12%	So'mda	1 841 989
2.2	Tashkilotni saqlash bilan bog'liq xarajatlar (kommunal, internet, dezinfeksiya, qo'riqlash, obodonlashtirish, yoritish, joriy ta'mirlash va boshqa joriy xarajatlar)	So'mda	1 841 989
2.3	Moddiy-teknika bazani rivojlantirish xarajatlari (shu jumladan, o'quv-ilmiy adabiyotlar va laboratoriya jihozлari, mebel va kompyuter texnikalari, dasturiy ta'minotlar va boshqalar)	So'mda	1 841 989
Bir nafar talabani o'qitish uchun to'lanadigan yillikboshqaruv-tashkiliy xarajatlar			5 525 966
Bir nafar talaba uchun yillik stipendiya to'lovi (517 880 so'm x 12 oy)			So'mda
* Bir nafar talaba uchun ta'lim xizmati xarajatlari qiymati (stipendiyali)			So'mda
* Bir nafar talaba uchun ta'lim xizmati xarajatlari qiymati (stipendiyasiz)			So'mda

3 "Moliyaviy mustaqillik berilg'an давлат олий таълим муассасаларини бир талаба учун тўғри келадиган ўртacha харажат миқдоридан келиб чиқиб молиялаштириш тартиби тўғрисида" Низомга (Вазирлар Махкамасининг 2022 йил 1 августдаги 419-сон қарорига илова) мувофиқ муаллиф томонидан тузилган.

4 Муаллиф томонидан тузилган.



Yuqorida keltirilgan normativ hujjat va ma'lumotlarga asoslanib davlat oliy ta'lim muassasasiga bir o'quv yilida bakalavratura bosqichiga qabul qilingan bir nafar talabaning o'qitish qiymati hisobi bo'yicha ma'lumotdan ko'rish mumkinki, bir nafar talaba uchun ta'lim xizmati xarajatlari qiymati stipendiyali shaklda 20 950,5 ming so'm, stipendiyasiz shaklda 14 735.9 ming so'mni tashkil etmoqda. Jadval ma'lumotlari "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'ttacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi to'g'risida" Nizomga (Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdag'i 419-son qaroriga ilova) muvofiq bir nafar talabani o'qitish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq xarajatlari (bevosita xarajatlar) aniqlangan. Shuningdek, bir nafar talabani o'qitish uchun boshqaruv-tashkili xarajatlari (bilvosita xarajatlar) qiymati oldingi yilning haqiqiy xarajatiga nisbatan yoki professor-o'qituvchilarga to'lanadigan bazaviy normativ qiymatga nisbatan hisoblanishi maqsodga muvofiq. Ta'lim bosqichi (bakalavratura, magistratura...) va turiga (kunduzgi, sirtqi...) ko'ra bir talabaning o'qitish xarajatlarini kal'kulyatsiya qilish orqali davlat oliy ta'lim muassasasi ta'lim xizmatlari xarajatlarini aniq va shaffof hisobini yuritishi muassasa daromad va xarajatlarini nazorat qilishga erishishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari optimallashtirish, budget va budgetdan tashqari mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanishini nazorat qilish uchun avvalo, hisob ishlari to'g'ri tashkil qilinishi, zamonaviy dasturiy tizimlardan foydalanish zarur. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar harakatini nazorat qilish, amaldagi normativ – huquqiy hujjatlarga muvofiq sarflanishini tekshirish uchun ham albatta ishonchli buxgalteriya ma'lumotlari kerak. Buning uchun davlat oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya xizmatini to'g'ri yo'lga qo'yish shart hisoblanadi va bunga tashkilot rahbari va boshqa ma'sul xodimlar javobgardir.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobini takomillashtirishda nafaqat moliya-iqtisod ishlari bo'yicha balki o'quv ishlari bo'yicha, ma'naviy-ma'rifiy ishlari, ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha ham ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish zarur.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha xarajatlar smetasi ijrosini tizimli tahlil qilib borish, belgilangan rejadan og'ishlarning sabablarini o'rganish, bunda ko'p hollarda rejadan chetga chiqishlar kuzatilishi mumkin bo'lgan boshqa xarajatlar (IV-guruh xarajatlari) - kommunal to'lovlar, obodonlashtirish, yoqilgi sarfi, joriy tamirlash, o'quv ilmiy adabiyotlar va laboratoriya jihozlari, mebel va kompyuter jihozlari, dasturiy ta'minot, asosiy vositalarning eskirishi, ularni sotib olish va hisobdan chiqarish kabi masalalarda tizimli tahliliy ishlarni olib borish zarur.

O'quv ishlari bo'yicha dars sifatini oshirish, ta'limning sirtqi, masofaviy, kechki, online ta'lim turlariga urg'u berish, zamonaviy o'quv jihozlaridan foydalangan holda professor-o'qituvchilarning yuklamalarini kamaytirish orqali ular mehnatidan samarali foydalanish kabi qator masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlarini hisoblash, Ta'lim bosqichi va turiga ko'ra bir talabaning o'qitish xarajatlarini kal'kulyatsiya qilish orqali tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, moliyaviy resurslarni samarali boshqarish va ta'lim muassasalarining moliyaviy shaffofligini ta'minlashga erishish mumkin. Bunda,

- Hisoblash usullarini takomillashtirish,
- Ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni yaxshilash,
- Ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish,
- Ta'lim xizmatlari xarajatlarini hisoblash tizimini zamonaviylashtirish va ta'lim muassasalari xodimlarini malakasini oshirish ta'lim xizmatlari xarajatlarini hisoblash tizimini takomillashtirish jarayonining muhim elementlari, deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПК-61-сон қарори. lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПК-60-сон қарори. lex.uz.
4. “Олий ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларида ўқитишнинг тўлов-контракт шакли ва ундан тушган маблағларни тақсимлаш тартиби тўғрисидаги” Низом (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2013-йил 26-февралда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 2431).
5. “Бюджет ташкилотлари ва бюджет маблағлари олувчиларнинг харajatlari сметasi ва штат жадвалларini тузиш, тасдиқлаш ва рўйхатдан ўтказиш тартиbi тўғрисидаги” Низом(Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2014-йил 15-декабрда 2634-сон билан рўйхатдан ўтказилган).



6. “Молиявий мустақиллик берилган давлат олий таълим муассасаларини бир талаба учун тўғри келадиган ўртача харажат миқдоридан келиб чиқиб молиялаштириш тартиби тўғрисида” Низомга (Вазирлар Маҳкамасининг 2022-йил 1-августдаги 419-сон қарорига илова).
7. Abdulkarimovich O. A. Improving Accounting of settlements with Suppliers and Buyers in Public Sector Institutions // American Journal of Economics and Business Management. ISSN. – 2021. – C. 2576-5973.
8. Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich. (2023). AUDIT INSPECTIONS OF STATE PURCHASES AND CONTRACTS SIGNED ON THE BASIS OF TENDER IN BUDGETARY ORGANIZATIONS. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(2), 99–112. Retrieved from <https://econferenceseries.com>.
9. Ostonokulov, A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions. E3S Web Conf. Volume 296, 2021. In 1st International Conference on Environmental Sustainability Management and Green Technologies (ESMGT 2021). <https://doi.org>.
10. Пардаева Ш.А. Харажатларнинг стратегик бошқарув ҳисобини самарали ташкил қилиш йўналишлари. “Иқтисодиёт ва таълим” ТДИУ журнали <https://cedr.tsue.uz>.
11. Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим Вазирлиги, Тошкент Давлат иқтисодиёт университети. – Т.: Иқтисод-Молия, 2005. – 244 б.
12. Каверина О.Д. Управленческий учет: системы, методы, процедуры. Учебник. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 352 с.
13. Захарова Л.В. Формирование и развитие образовательных услуг: автореф. дисс. конд. экон. наук / Белград. 2002. – 235 с.
14. Баженова В.С. Непрерывное образование в условиях трансформации экономической системы. – М.: Изд. Рос. экон. акад, 2000-216 с.
15. Кулибоев А.Ш. “Давлат тиббиёт ташкилотларида бухгалтери ҳисоби ҳамда молиявий назорат: Назария ва Амалиёт” монографияси Тошкент “Иқтисодиёт ва Молия” 2023.
16. <https://web.andmiedu.uz/uz/activities/journals>.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

